



JINOYATLARNI OCHISHDA TRASOLOGIK IZLARNING AHAMIYATI.

Qo'chqoraliyev Asliddin Ahmadali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 328-guruh kursanti

Annatotsiya: Ushbu maqolada sodir etilgan jinoyat joylaridan topilgan har xil trasologik izlar va buyumlarning shu jinoyatlarni ochishdagi ahamiyati, umuman olganda trasologik iz, uning turlari va ularni identifikatsiyasi, trasologik ekspertiza xulosasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Iz, trasologiya, ekspert, trasologik ekspertiza xulosasi, trasologik izlar va buyumlar.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotganini islohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz. Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi murakkab zamonda dunyoning turli mintaqalarida hukm surayotgan notinch vaziyatlar, qurolli to'qnashuvlar har birimizni doimo hushyor va ogoh bo'lishga undaydi. Bunday sharoitda uyushgan transmilliy jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizm, narkobiznes, korrupsiya kabi tahdidlarga qarshi samarali kurashish, ularga keskin zarba berish tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi"1. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda chop etilayotgan har bir darslik, o'quv qo'llanma yosh avlodning huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimini oshirish, ularni har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun o'z hissasini qo'shmaqda.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etishga va jazolashga qaratilgan jinoiy sud amaliyoti masalalarining hal etilishi har bir jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni tiklash bilan bog'liqdir. Jinoyat hodisasini har tomonlama tadqiq etish orqali unga aloqador bo'lgan barcha shaxslarning o'rni hamda jinoyat sodir etish shart-sharoitlarini yetarli darajada ishonchli fosh etish mumkin. Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan harakatlar atrof muhitda o'ziga xos ravishda qolgan izlarda ifodalananadi. Bu izlar esa kriminalistika sohasida moddiy izlar deb ataladi. Moddiy izlarni aniqlash, ularni hisobga olish va tekshirish usullarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish, yuzaga kelish qonuniyatlarini zamonaviy texnika asosida tahlil qilish, shuningdek zamonaviy kriminalistik texnika sohasi bo'lgan izlar to'g'risidagi kriminalistik ta'lim yoki trasologiyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Kriminalistikaning izlar haqidagi bo'limini ilk bor "trasologiya" deb

atashni taklif qilgan. I. N. Yakimov ushbu bo'limga kriminalistik jihatdan alohida ahamiyat qaratib, hozirgi vaqtida kriminalistikada ashyoviy dalillar va izlar haqidagi ta'limot yoki "trasologiya" birinchi darajali ahamiyatga egaligini ta'kidlagan.



Iz – atrof muhitdagi o'zgarishni baholash va tahlil qilish uchun aniqlangan, mustahkamlangan ekspertiza manbaidir. Izlar o'zlarida mavjud bo'lgan jinoiy-huquqiy axborot va ma'lumotlarning signalli-belgili ifodalovchilaridir.

Trasologik izlar deganda, atrof-muhitda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan shunday o'zgarishlar tushuniladiki, ular natijasida bir narsaning tashqi tuzilishi boshqasida o'z aksini topadi.

Trasologik iz tushunchasi – jinoyat ishlarining daliliy bazasini shakllashtirishda foydalilaniladigan, qidiruv harakatlarida ishlataladigan ma'lumotlarning butun yig'indisini o'z ichiga oladigan iz qabul qiluvchi va iz qoldiruvchi obyekt ta'sirida vujudga kelgan moddiy aks etish manbaidir.

Izlarning hosil bo'lish mexanizmi orqali quyidagilar aniqlanishi mumkin:

- 1) obyektlarning o'zaro ta'sir hodisasi;
- 2) ta'sir shakli (fizik, kimyoviy, biologik);
- 3) ta'sir yo'nalishi va kuchi;
- 4) iz hosil bo'lish mexanizmi va shartlari;
- 5) iz hosil bo'lishda qatnashuvchi obyektlarning xossalari.

Bunda obyektlarning tashqi tuzilishini belgilovchi sifatlar asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Trasologiyada izlarning hosil bo'lish mexanizmlari

quyidagilarga bo'linadi:

1. Hajmli va yuzaki izlar.
2. Statik va dinamik izlar.
3. Lokal va periferik izlar.

Iz hosil bo'lgan obyektda yuzaga kelgan o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra, ikki turdag'i izlar ajratiladi: **hajmli va yuzaki**.

Hajmli izlar iz hosil qiluvchi obyektning buzilishi (deformatsiyasi)

natijasida yuzaga keladi. Bunda iz qabul qiluvchi obyekt bilan yaqinlashish joyi yangicha shaklga kirib, obyekt sirtining u yoki bu darajada buzilishini aks ettiradi. Hajmli izlar hosil bo'lishida odatda iz qabul qiluvchi obyekt, basharti u bir turda va nisbatan qattiq xossaga ega bo'lgan taqdirda, qisman buziladi (masalan, yog'ochdagi zarba izlari, poyafzalning yumshoq tuproqdag'i izlari).

Yuzaki izlar iz qabul qiluvchi obyekt sirtining o'zgarishi natijasida hosil bo'ladigan izlardir. Bunday o'zgarishlar quyidagi omillar natijasida yuzaga keladi:

- ✓ iz qabul qiluvchi obyektga iz hosil qiluvchi obyekt parchalari, moddaning o'zi yoki uning tarkibida bo'lgan boshqa moddaning qoplanib qolishi, bunday izlar qatlama izlari deyiladi;
- ✓ iz hosil qiluvchi obyekt tomonidan iz qabul qiluvchi obyekt tarkibiga kiruvchi moddaning ko'chishi, sinib tushishi, bunday izlar ko'chish izlari deb ataladi;
- ✓ iz qabul qiluvchi obyekt sirtining fizikaviy, kimyoviy va boshqa



hodisalar ta'siri ostida o'zgarishi va h.k.

**Iz hosil qiluvchi obyektning to'liq va sifatli akslanishi ko'r
hollarda quyidagilar bilan belgilanadi:**

- ✓ iz qabul qiluvchi modda yuzasida iz hosil qiluvchi moddaning miqdori, moddaning kamligi yoki aksincha, juda ham ko'pligi izdagi obyekt tashqi tuzilishining akslanishini susaytiradi;
- ✓ iz hosil qiluvchi moddaning sifati va qoplanishi iz hosil bo'ladiciga yuzaga yopishish xususiyati yoki aksincha, ko'chish izi hosil bo'lgan iz hosil qiluvchi obyekt bilan ta'sirga kirishish xususiyati;
- ✓ iz hosil bo'lish mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari.

Iz qabul qiluvchi obyektdagi o'zgarishlarning joylashishiga qarab, hajmli va yuzaki izlar iz qabul qiluvchi obyektda mahalliy yoki pereferik joylashishi mumkin. Lokal izlar deganda, hosil bo'lishida iz qabul qiluvchi va iz qabul qiluvchi obyektlarning o'zaro ta'sirlashish chegaralaridagina yuz beradigan izlar tushuniladi.

Statik izlar bosib tushirilgan izlar bitta yo'nalishdagi bitta ta'sir natijasida hosil bo'ladi. Shu bois tashqi o'zgarishlar bitta joyda deyarli bir vaqtning o'zida hosil bo'ladi. Iz hosil qiluvchi obyektni dumalatish orqali yuzaga kelgan izlar statik izlar turiga kiradi. Zero, ularni iz hosil qiluvchi obyektlarning bir-biriga yaqin joylashgani, ammo ko'rinishidan turlicha bo'lgan sirtidan yuzaga kelgan bosilgan izlar sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Dinamik izlar ikki kuchning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi.

Ularning biri bosilgan iz hosil bo'lishida, boshqasi iz hosil bo'luvchi yuza bo'ylab harakatlanishga ta'sir qilishi tufayli dinamik izlar iz hosil qiluvchi obyekt (buyum)ning sirtidan paydo bo'lgan uzlusiz statik izlarni tashkil qiladi. Trasologik izlar quyidagilar orqali aniqlanadi.

✓ Trasologiyaning fizikaviy usullariga mikroskopda ko'rish, yorug'lik spektrining ko'rinaso sohasidagi nurlarda tekshirish, iz hosil qilgan moddaning yopishqoqligi va turlicha singdirish qobiliyatiga asoslangan holda tadqiq qilish kiradi.

✓ Mikroskopik tadqiqotlar (mikroskopiya) izning oddiy, ko'zga ko'rinxaydigan va ilg'ab bo'lmaydigan mikrozarralari va mayda qismlarini ko'rishdir. Ko'zning ko'rish qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi moslamalarga lupalar, turli binokulyar, stereoskopik, instrumental, biologik, kattalashtiruvchi, elektron kriminalistik mikroskoplar kiradi. Trasologik obyektlarni mikroskopik tadqiq etish qaytuvchi va o'tuvchi nurda amalga oshirilishi mumkin. Relyefning notekis joylarini tekshirishda soya kontrastini kuchaytirish maqsadida qiya tushuvchi nurdan foydalilaniladi. Iz hosil bo'lgan obyekt va izdagi ranglar kontrastini aniqlash maqsadida rangli filtrlar qo'llanadi. Ikki o'chamli tekislikda qiyoslashda "MSK-1" yoki uning mukammalroq analogi "MSK-3" yoki "Peleng MS-22" mikroskopidan foydalilaniladi. Mazkur asbob buzilgan izlar profili va sirtining yuzasi kichik bo'lgan



izlarni yuqori darajada aniq ko'rish hamda 1:8000 gacha berilgan masshtab diapazonda mikrorelef profilining obyektiv belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Ekspertning xulosasi ashayoviy dalil manbai deb hisoblanishi qonunda ko'rsatilgan. Har qanday ashayoviy dalil sifatida u tergovchi, prokuror va sud tomonidan tekshirilib ko'riliши va uning ashayoviy dalil sifatida tan olinishi, ekspert tomonidan aniqlangan dalillarning ishga

tegishliligi, ekspert xulosalarining ishonchligi va ularning daliliy ahamiyati tasdiqlanishi zarur. O'zbekiston Respublikasi JPKning 184-moddasida: "Ekspert zarur tadqiqotlarni amalga oshirgandan so'ng o'z nomidan yozma xulosa tuzadi va uni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi", deyilgan. Ekspert xulosasi bu – maxsus bilimlar asosida haqiqatni aniqlash va ekspertrning ular to'g'risidagi fikridan iboratdir. Xulosaning o'zi uch qismdan iborat bo'ladi: kirish qismi, tadqiqot qismi va xulosalar.

Kirish qismida umumiyo ko'rinishdagi ma'lumotlar keltirilib, ular asosida keyinchalik ish bo'yicha dalil sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan xulosalar yoziladi:

- ü kriminalistik muassasa (bo'lim)ning nomi;
- ü xulosa raqami va uni tuzish sanasi;
- ü ekspertiza o'tkazish uchun asos (tergovchi qarori, sud ajrimi), –jinoyat ishining raqami, jinoyat ishi qo'zg'atilgan ayblanuvchilarning familiyalari;
- ü o'tkazilgan ekspertizaning nomi;
- ü ekspertiza kim tomonidan amalga oshirilgan (ekspertning familiyasi, ismi, sharifi, ma'lumoti, mutaxassisligi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi), ba'zida ekspert sifatida ish stoji ko'rsatiladi.
- ü ekspertning oldiga qo'yilgan savollar;
- ü tekshirish uchun berilgan obyektlar: ashayoviy dalillar, namunalar, ish materiallari.
- ü basharti ekspertiza takroriy amalga oshirilayotgan bo'lsa, birlamchi ekspertiza kim tomonidan va qachon amalga oshirilgani ko'rsatiladi.

Tadqiqot qismida berilgan obyektlar, tadqiqotning borishi va natijalari, sintezlovchi qism batafsil ta'riflanadi. Tadqiqot obyektlariga quyiladigan talablarda o'ramning butunligi katta ahamiyatga ega bo'ladi, zero, u obyektning butunligini va buzilmaganligini ta'minlaydi. Basharti o'ram buzilgan bo'lsa, bu alohida qayd etiladi. Obyektlarning o'ziga, ularning umumiyo va xususiy belgilari va obyektni alohidalashitirishga imkon beruvchi tomonlariga ta'rif berib o'tiladi. Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar fotosuratlar bilan tasdiqlanib, ularda obyektning umumiyo ko'rinishi tasvirlanadi va belgilarni bayon qilish mobaynida ularga havola qilib o'tiladi.

Alovida tadqiq etish bosqichini bayon qilishda ekspert tomonidan identifikasiya qilinuvchi belgi sifatida olingan belgilarga alohida ta'rif berib o'tiladi. Iz hosil bo'lish mexanizmiga alohida e'tibor berilib, u diagnostik vazifani hal qilishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Agar ekspert tajriba-sinovi o'tkazilsa,



xulosaning muayyan qismiga “Eksperimentlar o’tkazish” deb nomlangan mustaqil bo’lim kiritiladi. Mazkur bo’limda eksperimentning maqsadlari, o’tkazilgan tajribalar va ularning soni, shart-sharoitlari, olingan natijalar, ularning shart- sharoitlarning o’zgarishiga qarab turlanishi (variatsiyaligi), o’tkazilgan

eksperiment natijalarini qayd etish yo’llariga batafsil to’xtalib o’tiladi. Har bir obyektga doir alohida tekshiruv natijalari bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga, turdosh obyektlar (hodisa sodir bo'lgan joyning uchta turli joylaridan olingan iz qoliplari) bo'lganda va o'xhash belgilarni tahlil qilish (uzunlik, kenglik, umumiy va xususiy shakllar) amalga oshirilganda, ularning yagona jadvalga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, tadqiqotni amalga oshirishda tizimlilikka erishish imkoniyatini beradi. Fotosuratlar orqali identifikatsion masalalarni hal qilishda o'xhash va farq qiluvchi belgilar qiyoslanadi. Bu maqsadda qiyoslash usullari: taqqoslash, qoplash, birlashtirish qo'llanadi. Bir-birigamos kelgan belgilar raqamlar bilan belgilanadi. Ular *nazorat raqamlarideb atalib*, o'xhash va farq qilgan tomonlarni mustaqil ravishda tekshirishimkonini beradi. Fotojadval ekspert tomonidan imzolanadi va xulosaga ilova qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning “Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” munosabati bilan tabrige //<https://iiv.uz/news/>.
2. Trasologik ekspertiza: Darslik / S.A. Nurumbetova, T.B. Mamatqulov, X.A.Turabbayev va boshq. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2022.
3. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
4. Trasologik ekspertizasi bo'yicha qo'llanma.

